

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM , FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi: 110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi: 60111100 -Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi MSVAX1205		O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni “Mediamadaniyat asoslari” fani talabalarda media va axborot savodxonligi, infoetikani shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi axborot asridagi shiddatli va murakkab jarayonlar axborot makoni globallasuvi, soʻz erkinligi taʼminlanishi, ommaviy kommunikatsiyaning kuchayishi, shuning barobarida OAVning manipulyativ taʼsiri oshishiga xizmat qilmoqda. “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” oʻquvfani boʻyicha mediamatnlarni tahlil etish, tanqidiy qabul qilish va yaratish, axborot manbalarini, kontekstda axborot uzatuvchilarning siyosiy, ijtimoiy, tijoriy yoki madaniy manfaatlarini aniqlash, media mahsulotlar ahamiyatini izohlash, oʻz shaxsiy mediamatnlarini yaratishga muvofiq keluvchi oʻzga mediamatnlarni tanlash va unga qiziquvchi auditoriyani topa oladigan malakali mutaxassislarni shakllantirishni koʻzda tutadi. Talabalarda media va axborot savodxonligi tushunchasi, uning konseptual asoslari, medianing paydo boʻlishi demokratik jamiyatda tutgan oʻrni, shakllanishi va taraqqiyoti tendensiyalari toʻgʻrisida ilmiy tushuncha hosil qilish hamda mediasavodxonligini oshirishdan iborat. Fanning vazifasi – talaba yoshlarda milliy- maʼnaviyatimizni axboriy tahdidlardan asrash, nazariy bilimlarni egallagan holda axborotlarni tahlil etish, axborotlarning manbasi, maqsadi, foydalangan media usullarni aniqlash, globallasuv sharoitida axboriy madaniyat zaruratini tushunish, OAV aholining mediasavodxonligini oshiruvchi vosita sifatidagi rolini bilish, mediataʼlimning vazifalari, prinsiplarini oʻzlashtirgan holda reallik va reprezentatsiyaning mosligi yoki qarama-qarshiligini aniqlay olish, anʼanaviy va elektron OAVda uzatilayotgan axborotning taʼsirini tasavvur qilish boʻyicha amaliy koʻnikmalar shakllantirishdan hamda mediasavodxonlik va axborot madaniyati sohasida etakchi mamlakatlarning ilgʻor tajribalarini ommalashtirishga doir nazariy va amaliy bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.				

Fanning etakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:

Mediamadaniyat asoslari fani dasturi dunyoning etakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy universitetining Media aloqalar fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 163-o'rinni egallagan bo'lib, ushbu sohada yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Al-Farobiy universitetining *Media Communications* kursida mediasavodxonlik bilan bir qatorda, OAVda uzatilayotgan axborotning ta'sirini tasavvur qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantirishdan hamda axborot madaniyati sohasida etakchi mamlakatlarning ilg'or tajribalarini ommalashtirishga doir nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarni tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro ta'lim me'yorlari, xususan, ilmiy madaniyat normalari va qoidalarini, dunyoni tanqidiy idrok etishning samarali texnologiyalarini, shuningdek, media etikasi va qonunchiligini hisobga olgan holda multimedia kontent vositalaridan foydalangan holda media bozorini ilgari surish va boshqaruv prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyodagi axborot oqimini tanqidiy idrok etish, mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o'rganadilar

II. Asosiy nazariy qism

Ma'ruza mashg'ulotlari

1-MODUL. MEDIAMADANIYAT ASOSLARI FANINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI

1-mavzu: Mediamadaniyat asoslari fanining maqsadi, vazifalari va uning rivojlanish evolyutsiyasi

Media va axborot savodxonligi tushunchasi evolyutsiyasi va dialektikasi. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Muloqot va ma'lumot tushunchasining uzviyligi va o'ziga xosligi. Media savodxonlik va axborot madaniyati kommunikativ vosita sifatida va foydalanish usullari. Mediamadaniyatning ma'naviy-ramziy va axborot-texnik makoni sifatida voqelik haqidagi g'oyalar dinamikasini ochib berish, mumtoz va postklassik falsafiy va madaniy tafakkurda fazilat fenomenining talqinini o'rganish, "Axborot madaniyati" fenomeni ta'rifini ishlab chiqish, axborot madaniyatning funksiyalari va asosiy xususiyatlarini belgilash. Aloqa tarixi va nazariyasiga e'tibor qaratgan holda ijodiy texnologiyalar va moslashuvchan strategiyalardan foydalanish. Turli janr va formatdagi materiallarni yaratish, turli ommaviy axborot vositalarining media-kontentini tahlil qilish va solishtirish. Inqiroz davrida uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, media kommunikatsiyalari sohasidagi ta'sirni optimallashtirish.

2-mavzu: Media va axborot savodxonligi -raqamlashuv davrining asosiy talabi hamda raqamli gegiyena va niteket

Media va axborot savodxonligining zamonaviy dunyodagi o'rne va roli. Raqamlashtirish va tarmoqlardan foydalanish asta sekinlik bilan turli OAVlar o'rtasidagi chegaralarni yo'qqa chiqarayotgani. Internet, uyali telefonlar va boshqalarning bir vaqt va makonda birga mavjud bo'lishi media kontentning bir platformadan boshqasiga ko'chib yurishi imkonini berayotgani va axborot olish imkoniyatlarini ham kengaytirayotgani. Fuqarolar nafaqat axborot foydalanuvchilari, balki uning tayyorlovchi va tarqatuvchilari sifatida ham maydonga chiqadigan partisipativ madaniyatni yuzaga keltirayotgani. Tarmoqdagi infoetika. Reallik va virtuallik. Internetda mualliflik huquqi masalasi. Tarmoqdagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlari.

3-mavzu: Media maydon tuzilishi, ta'siri va media maydonda axborot tarqatish madaniyati

Media maydon tushunchasi. Medialar dunyosi. Medialarning uzviyligi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Media maydonning shaxs va jamiyatdagi o'rne va ahamiyati. Media axborot yaratish va uni tahlili. Media axborot (matn) tahlili va uni baholash madaniyati. Media madaniyat. Global tarmoqlarning zamonaviy iskanjalari. Vizual olamning ommaviyligi va jozibadorligi. Media maydonda vizual jozibadorlikning shaxs tasavvurida namoyon bo'lishi. Vizual olamda muloqot sevgi va nikoh munosabatlari. Vizual kontentning ommaviyligi va ta'sir muommolari. Axborot almashinuvining mexanizmlari va ilmiy nazariy asoslari. Axborot almashinuvining madaniy- sotsial holati va ahamiyati.

4-mavzu: Zamonaviy media muhitda axborot manipulyatsiyasidan himoyalash hamda jahon media va axborot makonida raqobat muhiti

Manipulyatsiya tarixi va ularga qarshi kurash. Media manipulyatsiya instrument sifatida. Manipulyatsiya texnologiyasi va turlari, ko'rinishlari va texnikasi. Odamlarni manipulyatsiya qilishning psixologik usullari. Muloqotda manipulyatsiyaga misollar. Muloqotda manipulyatsiya chegaralari. Manipulyatorlarning qurboniga aylangan shaxslar. Boshqarish va himoya qilishda manipulyatsiyadan himoyalashda media va axborot savodxonligining roli. Manipulyatsiya va internetga qaramlik. Troll va trollik fenomeni. Shaxslararo muloqotda manipulyatsiya sabablarini shakllantirish. Aloqa sohasidagi manipulyatsiyasi. Media-kommunikatsiya sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari. Media-muhit va media ekologiya. Ommaviy axborot vositalari, texnologiyalar va kommunikatsiyalar va ularning inson muhitiga ta'siri. Media-kommunikatsiya sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari. Ijtimoiy media menejmenti (SMM) ga asoslangan media-asarlar yaratish.

5. Ommaviy axborot vositalari tarixi va rivojlanish bosqichlari

Ommaviy axborot vositalarining rivojlanish tarixi. Tarix va ommaviy axborot vositalariga kirish. Ommaviy axborot vositalarining birinchi shakllari. Ommaviy axborot vositalari turlari va xususiyatlari. Yozuvning rivojlanishi va birinchi bosma nashrlar. Bosma ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta'siri. Aloqa sohasidagi inqilob: radio va televidenie davri. Bosma va ommaviy axborot vositalari: kitob, gazeta, jurnal, radio, televideniya, kino, internet. Radioning ixtirosi va uning axborot sohasiga ta'siri. Radionutq o'ziga xosliklari. Uning auditoriyaga ta'sir ko'rsatish mexanizmalari. Televideniyaning rivojlanishi va uning jamoatchilik ongini shakllantirishdagi roli. Matbuotda so'z va axborot olish erkinligi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining muammolari. Ommaviy axborot vositalari etikasi va OAV qonunchiligi. Ommaviy axborot vositalari matni, televideniye va radio materiallarni jurnalistning millatlararo muloqotga yo'naltirilgan asosiy quroli sifatida taqdim etish. Ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish ko'rsatkichlarini tahlil qilish. Media va raqamli texnologiya vositalaridan foydalangan holda ulardan foydalanish va rivojlanishini prognoz qilish

6-mavzu: Media maydonda internet imkoniyatlari va xorijiy ommaviy axborot vositalarining o'rni

Internetning paydo bo'lishi va uning axborot tarqalishiga ta'siri. Internet tarixi. Birinchi internet-loyihalar. Internet va internetning rivojlanishi. Internet texnologiyalar va xizmatlari tarixi. O'zbekistonda internetning rivojlanishi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni. Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media maydondagi o'rni. "Odnoklassniki", "Telegram" "Facebook" "Instagram" "Whatsap" "Tik tok" "Yotebe" "Twitter" ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta'sir muammolari. Ijtimoiy tarmoqlarda madaniy transformatsiya, integratsiya va diffuziya.

2-MODUL. AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGI HAMDA AXBOROTNI MUHOFAZA QILISH

7-Mavzu: Axborotlashgan jamiyatda axborotning o'rni hamda erkinligi

Axborotlashgan jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati. Axborotni filtirlash ko'nikmasi. Axborotni turli manbalardan tekshirish imkoniyati va zaruriyati. Axborotdan chiqish va undan foydalanish erkinligi. Axborotni to'g'ri baholash va axborotga nisbatan tanqidiy fikrlash ko'nikmasi. Axborotni inson miyasiga qabul qilinish jarayoni. Axborotlarni shaxs-his tuyg'ulariga ta'sir muammolari. Axborotda adolat va xolislik prinsiplari. Insonlarga audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyati, mazmunini tushunishga, yaratishga va baholashga yordam berishga

undovchi harakat, rasmiy yo'naltirilgan va norasmiy axborot turlari. Axborotni izlash, topish tahlil qilish, qayta ishlash, uzatish, baholash, tarqatish.

8- mavzu: Feyk yangiliklar fenomeni: tarix va taraqqiyot

“Feyk yangilik” tushunchasining paydo bo'lishi tarixi. Soxta yangiliklar fenomeni va notog'ri malumotlar. Feyk turlari. Mahalliy va xalqaro ommaviy axborot vositalarida soxta yangiliklar. **Dezinformatsiya tushunchasi.** Mahalliy va xalqaro mediamakonda “feyk”lar va soxta yangiliklar turlari. An'anaviy ommaviy axborot vositalarida “feyk yangiliklar”ning ko'rinishlari. Yangi medialar sharoitida fake news, mistifikatsiya va auditoriya. “Feyk yangilik”larsiz jamiyat nazariyasi. Yangiliklarda qalbakilashtirish. Noto'g'ri axborot va yolg'on xabarlar. Yolg'on ma'lumotlarning zararlari.

9-mavzu: Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy-nazariy va huquqiy asoslari

Axborot xavfsizligi tushunchasi. Axborot xavfsizligi va milliy mafkura. Shaxsiy ma'lumotlar va ularning turlari hamda ular bilan ishlash, bo'lishish e'lon qilish, saqlash. Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi. Axborot xavfsizligi: milliy qonunchilik va xalqaro standartlar. Internet xavfsizligi va raqamli salomatlik. Internetni himoya qilish usullari. Axborot supermagistrallari va demokratiya. Xalqaro axborot tarqatishni tartibga solish muammolari va O'zbekistonda milliy axborot xavfsizligini ta'minlash. Davlat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan sirlar, Prezident asarlari, farmonlari, hukumat qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Xalqaro normalarda axboriy himoya. BMT ning “Bola huquqlari to'g'risida”gi konvensiyasi.

10-mavzu: Axborot xurujlari va internetdagi tahdidlardan himoyalani

Axborot xuruji tushunchasi. Axborot xurujlarining manbalari va ularning ijtimoiy muhitda amalga oshish usullari. Ijtimoiy tarmoqda axborot almashinuvi prinsipini aniqlash. va tizimli tahlil etish. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga funksional bog'liqligi. Globallashuv jarayonida mafkuraviy tahdidlarning xavf solishi va uni bartaraf etish omillari. Internetda parvarish qilish va onlayin jinsiy zo'rovonlik xavfi. Din niqobidagi tahdidlardan himoya choralari.

11-mavzu: Kiberterrorizm va undan himoyalani

Kibermakon tushunchasi va uning mazmun mohiyati. Terrorizm tushunchasi. Kiberterrorizm: milliy va xalqaro xavfsizlikka tahdid. Kiberjinoyatchilikka qarshi kiberxavfsizlik. Kiberxavfsizlikda inson omili. Kiberjinoyatchilik, kiberqonunlar va kiberetika. Kiberxavfsizlik siyosati va uni amalga oshirish. Kiberterrorizm va uning inson ongiga ta'siri. Kiberterrorizmning zamonaviy tahdidlari, ekstremizmning yangi shakli tahlili. Kiberbulling. Onlayin tajovuz shakllari. Jahon axborot tizimidagi tahdidlarga qarshi turish. “Ishid” va “Tolibon“ mojarosi, Rossiya-Ukraina

munosabatlari. Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi” kurash bo'yicha ShXT konsepsiyasi.

3-MODUL. YOSHLAR MEDIYASAVODXONLIK MADANIYATI: TARAQQIYOT YOKI TANAZZUL DIALEKTIKASI

12- mavzu: Mediata'lim va uni o'quvchi-yoshlarga o'qitishning ahamiyati.

Mediata'lim va uni rivojlanish tarixi. Mediata'lim yo'nalishining asosiy atamalari. Xorijiy mamlakatlarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini qiyosiy tahlili. Mediata'lim darslarini o'tkazish metodikasi. Mediasavodxonlik va media kompetentsiya tushunchalarini o'rganishda zamonaviy nazariy yondashuvlar. O'quvchi yoshlarda media immunitetini shakllantirish. Media o'zlikni anglashni shakllantirish omillari. Yosh media iste'molchilarda axborotga nisbatan tanqidiy fikrlash ko'nikmasi.

13- mavzu: Mediamadaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni

Mediamadaniyat – yangicha tafakkur va ma'naviy yangilanish omili. Mediya madaniyat shakllanishi jarayonida milliy qadriyatlarni saqlab qolish zarurati. Virtual olam xatarlari. Milliy qadriyatlar negizida yangi mediaqadriyatlarni ishlab chiqarishga ehtiyojining mavjudligi.

14- mavzu: Media maydonda axborot etikasi va ahloqiy me'yorlarning rivojlanish prinsiplari

Axborot etikasi. Ahloqiy me'yorlar. Media axloq qoidalari. Tarmoq axloq-odobi va uning ahamiyati. Media maydonda axborot etikasini shakllantirish omillari. Jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun falsafiy, huquqiy, biznes va ekologik sohalarida samarali muloqot usullaridan foydalangan holda ommaviy axborot vositalarida yangiliklarni qayta ishlash bo'yicha kasbiy faoliyatga ijodiy komponentni kiritish.

15- mavzu Virtual o'yinlarning yoshlar ongiga va ahloqiy tarbiyasiga salbiy ta'siri

Virtual o'yinlarning paydo bo'lishi, va ularning turlari. Bolalar kompyuter o'yinlarining tasnifi. Virtual tanishuvlar. Virtual o'yinlar- yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta'siri. Manqurtga aylantirishning zamonaviy vositalari. Igromaniya. Kompyuter o'yinlarning ruhiy jismoniy xatarlari. Kompyuter muteligining ruhiy va jismoniy xatarlari. Virtual o'yinlarning asoratlari. Virtual tutqunlikka qarshi kurash choralari. Virtual olamda o'zlikni namoyon qilish - qahramonlik.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar seminar ko'rinishida tashkil etilib, ma'ruza darslarida o'tilgan mavzularni professor-o'qituvchilar boshchiligida yanada chuqurroq o'rganish va o'zlashtirish uchun o'tkaziladi.

Mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanidan seminar mashg'ulotlari o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, dars jarayonida mustaqil ishlashga o'rgatish, topshiriqlarni mustaqil bajarishga erishish ko'zda tutiladi.

Seminar mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular

1. "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fanining maqsadi, vazifalari va rivojlanish evolyutsiyasi
2. Media va axborot savodxonligi - raqamlashuv davrining asosiy talabi hamda raqamli gigiena va niteket
3. Media maydon tuzilishi, ta'siri va media maydonda axborot tarqatish madaniyati
4. Zamonaviy media muhitda axborot manipulyatsiyasidan himoyalanih hamda jahon media va axborot makonida raqobat muhiti
5. Ommaviy axborot vositalari tarixi va rivojlanish bosqichlari
6. Media maydonda internet imkoniyatlari va xorijiy ommaviy axborot vositalarining o'rni
7. Axborotlashgan jamiyatda axborotning o'rni hamda erkinligi
8. Feyk yangiliklar fenomeni: tarix va taraqqiyot
9. Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy-nazariy va huquqiy asoslari
10. Axborot xurujlari va internetdagi tahdidlardan himoya
11. Kiberterrorizm va undan himoyalanih
12. Mediata'lim va uni o'quvchi-yoshlarga o'qitishning ahamiyati
13. Jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun falsafiy, huquqiy, biznes va ekologik sohalarida samarali muloqot usullaridan foydalish.
14. Ommaviy axborot vositalarida yangiliklarni qayta ishlash bo'yicha kasbiy faoliyatga ijodiy komponentni kiritish.
13. Mediamadaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni
14. Media maydonda axborot etikasi va ahloqiy me'yorlarning rivojlanish prinsiplari
15. Virtual o'yinlarning yoshlar ongiga va ahloqiy tarbiyasiga salbiy ta'siri
16. Ommaviy axborot vositalari etikasi va OAV qonunchiligi.
17. Ommaviy axborot vositalari matni, televideniye va radio materiallarni jurnalistning millatlararo muloqotga yo'naltirilgan asosiy quroli sifatida taqdim etish.
18. Ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
19. Media va raqamli texnologiya vositalaridan foydalangan holda ulardan foydalanish va rivojlanishini prognoz qilish

IV.Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Media va axborot savodxonligi tushunchasi va uning ahamiyati.

2. Vizual matn yoki qisqa syujet rejasini tuzish (fotografiya, video, komiks, ertak, kompyuter grafikasi va h.k).
3. O'z medialoyihasini ishlab chiqish va taqdim etish.
4. Dunyo mamlakatlaridagi media va axborot savodxonligi taraqqiyoti.
5. Qisqa metrajli vizual mediamahsulotlar yaratish.
6. Medianing auditoriyaga ta'siri.
7. Globallashuv davrida axboriy madaniyat zarurati.
8. Mediamahsulot turlari.
9. OAV aholining mediasavodxonligini oshiruvchi vosita sifatida.
10. "Fikrga qarshi - fikr, g'oyaga qarshi - g'oya, jaholatga qarshi - ma'rifat" degan tamoyil mediamadaniyatning asosiy g'oyasi sifatida.
11. Axborot ko'ngilochar kontentining ahamiyati
12. Medialarning tarbiyaviy ahamiyati
13. Jurnallar va ko'ngilochar mahsulotlar
14. Filmlar va ommaviy madaniyat
15. O'yinlar ijtimoiy faoliyat sifatida
16. Maktab dasturida media va axborot savodxonligi
17. Dunyoning turli davlatlarida media bilan bir kun
18. Medialar kundalik hayotda
19. Feyk xabar yoki yolg'on axborotga qarshi immunitetni shakllantirish
20. Internetdagi tahdidlardan himoyalash

"Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fani bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish va bajarishning asosiy **maqsadi** fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Talaba mustaqil ish mavzularini quyidagi tashkiliy shakllarda tayyorlashi mumkin:

- 1) adabiyotlar bilan ishlash, mavzu bo'yicha bibliografiya tuzish va adabiyotlarni qisqacha mazmunini berishi;
- 2) mavzu bo'yicha ijodiy ish bajarishi;
- 3) mavzular bo'yicha referat yozishi;
- 4) mavzular bo'yicha ko'rgazmalar tayyorlash: pano, plakat, buklet, slaydlar
- 5) ayrim mavzularni mustaqil o'zlashtirish;
- 6) seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- 7) laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
- 8) esse, ilmiy-uslubiy maqola, anjuman tezislarini tayyorlash;
- 9) nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash;

10) mavzular bo'yicha tarqatmalar tayyorlash: savol kartochkalari, muammoli savol kartochkalari, test tarqatmalari, boshqotirmalar, krossvord, skanvord, didaktik o'yinlar va b.;

11) glossariylar tuzish;

12) mavzularning elektron versiyalarini yaratish;

13) keys-stadi, nostandart testlar, mavzular bo'yicha assesmentlar tayyorlash;

14) chet el adabiyotlaridagi mavzuga doir materiallarni tarjima qilish, loyihalar yaratish.

V. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Baratbayev B. Virtual madaniyat asoslari. – Toshkent. Ilm va fan. 2021
2. Baratboyev B., Xaydarova D. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Toshkent. Ilm va fan. 2023

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Kubey, R. (1998). Obstacles to the Development of Media Education in the United States. Journal of Communication (Winter), pp.58-69.
2. UNESCO, 1984. Media education. Paris: UNESCO. R. 8.
3. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы // Медиаобразование. 2005. № 1. С. 32.
4. Кириллова Н.Б. Медиакультура: от модерна к постмодерну. - М.: Академический Проект, 2005. – 448 с.
5. Корконосенко С.Г. Преподаем журналистику: профессиональное и массовое медиаобразование. – СПб.: Изд-во Михайлова, 240 с.
6. Новикова А.А. Медиаобразование в России и Европе в контексте глобализации. – Таганрог: Изд-во Кучма, 2004. – 168 с.
7. Разлогов К.Е. Что такое медиаобразование? // Медиаобразование. 2005. № 2. С. 68-75
8. Федоров А.В. Медиаобразование в зарубежных странах. – Таганрог: Изд-во Кучма, 2003. – 238 с.
8. Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность. Учебное пособие для вузов. – Таганрог: Кучма, 2004.
9. Шариков А.В. Так что же такое медиаобразование? // Медиаобразование. 2005. № 2. С. 77.
10. Mamatova Yo. Sulaymonova S. O'zbekistonda mediata'lim istiqbollari. – Toshkent. 2013.

	11. Землянова Л.М. Зарубежная коммуникативистика в предверии информационного общества. М.: Изд – во Моск. ун-та. 2001. 12. Imnazarov K.T. va b. Hozirgi zamon jurnalistikasi. – T.: O‘zMU, 2008. Axborot manbaalari 13. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali. 14. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 15. www.mediaeducation.ru Internet saytlari 1. “Xalq so’zi” gazetasi – www.infoxs.uz. 2. “Turkiston” gazetasi – www.turkiston.sarkor.uz. 3. “Ma’rifat” jurnali – www.ma’rifat – inform. 4. “Moziydan sado” jurnali – www.moziy.dostlink.net 5. www.Ziyonet.uz. 6. www.kun.uz 7. www.geopolitika.uz 8. www.siyosat.uz 9. www.sharh.uz 10. www.gov.uz. 11. www.philosophy.ru. 12. https://welcome-kaznukz.translate.google.ru/education_programs/bachelor/speciality/2112?_x_tr_sl=auto&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=uz&_x_tr_pto=wapp
	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
	Fan/modul uchun mas’ullar: E.Oripov – QDU, “Milliy g‘oya va huquq” kafedrası mudiri (PhD)
	Taqrizchilar: Z.Boytemirova – QDU, “Milliy g‘oya va huquq” kafedrası dotsenti